

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

“FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University” jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
AXMADALIYEV Y.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	ZUOGANG PENG (Xitoy)	Janubiy-g'arbiy universitet, b.f.d., prof
ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	PANASYUK M (Rossiya)	Qozon federal universiteti, g.f.d, profr
A'ZAMOV A (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	Anqara Hoji Bayram Veli universiteti fil. f.d., prof
SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston)	O'zR FA t.f.d., prof	SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston)	Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof
TURAYEV A. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, k-b,f,d., prof	ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesiya)	Universitas Muhammadiyah Sidoarjo, Siyosat va xalqaro huquq.
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	O'zRFA k.f.d., prof	SCOTT LEVI (AQSH)	Ohio State University, PhD, prof
ABDULLAEVA Z (Qirg'iziston)	OshDU k.f.n., dots	AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston)	Abay nomidagi Qozoq milliy pedagogika universiteti
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, b.f.d., prof	SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya)	Ataturk University
G'ULOMOV S. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, i.f.d, prof	SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston)	E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti
JUMABEKOVA B (Qozog'iston)	b.f.d., prof		

Tahririyat kengashi

IJTIMOIY FANLAR BO'YICHA			
XONKELDIYEVA G.	FarDU, i.f.d., prof.	SIDDIQOV I.	FarDU, f.f.d., prof
XAKIMOV N.	FarDU, f.f.d., dots.	YULDASHEV S.	FarDU, f.f.d. (DSc)
ISOMIDDINOV M.	FarDU, t.f.d., prof	G'ANIYEV B.	FarDU, f.f.d., (DSc) dots.
USMONOV B.	FarDU, t.f.d., prof	QOSIMOV A.	FarDU, f.f.d., prof.
MAXMUDOV O.	FarDU, t.f.d., dots	QAMBAROV A.A	FarDU, f.f.d., prof
QAHHOROVA M.	Xalqaro islom akademiyasi, f.f.d., prof.	ALIMOVA N.O	FarDU, t.f.b.f.d., dots
QAMBAROV A.	FarDU, f.f.d.prof.	XASANOV M.X	FarDU, t.f.b.f.d., prof
MAMATOV M.	FarDU, f.f.d., prof.	SHAMSIYEVA M.X	FarDU, t.f.b.f.d., dots
DADABAYEVA	FarDU, yu.f.f.d., dots		

Bo'lim boshlog'i: Zokirov I.I., b.f.d.,prof.

Texnik muharrirlar: Sheraliyeva J.
Mirkarimova Sh.

Musahhihlar: Mahmudov F.
O'rinboyev I.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Journal.fdu.uz

Sh.Abdugʻaffor

XX asr boshlarida Fargʻona viloyatining Rossiya imperiyasi bilan iqtisodiy aloqalari 99

T.Egamberdiyeva, Sh.Oxunjonova

Taʼlimda gender yondashuvga oid xalqaro tajribalar tarixidan 105

R.A.Arslonzoda R.M.QodirovaXX asrning 20-30 yillarida Oʻzbekiston SSR maktablarida tarix fanining
oʻqitilishi masalalari 111**J.Sultonov**

Chingizxonning tangut davlatini egallash yoʻlidagi oʻziga xos diplomatiyasi 116

E.K.Abdulxayev

Qatagʻon siyosati qurboni boʻlgan jadidlarning rehabilitatsiya qilinishi 122

Q.V.Yoʻlchiyev

Urush mavzusining badiiy ifodasi 126

X.P.Jurayev, N.O.Maqsumov

Mustaqillik yillarida Fargʻona viloyatida sport infrastrukturasining rivojlanishi 131

O.B.Abdunosirova

Temuriylar davrida yuqumli kasalliklar va ularning ijtimoiy-madaniy hayotga taʼsiri 134

D.J.Nizomitdinov

Amir Temurga asir tushgan nemis ritsari 138

A.R.Usmonov

Dehqonchilik anʼanalari bilan bogʻliq nomoddiy madaniyat (Fargʻona vodiysi misolida) 141

F.I.QayumovaXX asr 20–30-yillaridagi iqtisodiy siyosat xususida ayrim mulohazalar
(Fargʻona vodiysi misolida) 147**B.A.Usmonov**

1470 – 1507-yillarda xurosonda Temuriylar davlatining siyosiy inqirozi va tugatilishi 153

B.A.Usmonov, R.X.Akbarov

Yangi qarashlarga boy tadqiqot 157



UO'K: 37.035

TA'LIMDA GENDER YONDASHUVGA OID XALQARO TAJRIBALAR TARIXIDAN

ИЗ ИСТОРИИ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА ПО ГЕНДЕРНОМУ ПОДХОДУ В ОБРАЗОВАНИИ

FROM THE HISTORY OF INTERNATIONAL EXPERIENCES ON GENDER APPROACH IN EDUCATION

Turg'unoy Egamberdiyeva¹¹Farg'ona davlat universiteti, O'zbekiston tarixi kafedrası professoriShahodat Oxunjonova² ²Farg'ona davlat universiteti, O'zbekiston tarixi kafedrası v.b.dotsenti, t.f.f.d

Annotatsiya

Maqolada ta'limda gender yondashuvining xalqaro tajribasi tarixi ko'rib chiqiladi. Turli mamlakatlarning ta'lim tizimlarida gender siyosatini rivojlantirishning asosiy bosqichlarini tavsiflash barcha o'quvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratish uchun ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan asosiy yo'nalishlar va usullarni aniqlash imkonini beradi. Gender tengligining ta'lim sifati va ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri ham alohida ta'kidlangan. Muhokama qilingan misollar muvaffaqiyatli amaliyotlar va gender tashabbuslarini amalga oshirish jarayonida turli mamlakatlar duch keladigan muammolarni o'z ichiga oladi.

Аннотация

В статье рассматривается история международного опыта гендерного подхода в образовании. Описание ключевых этапов развития гендерной политики в образовательных системах разных стран позволяет выявить основные тенденции и методы, применяемые в учебных учреждениях для создания равных возможностей для всех студентов. Также акцентируется внимание на влиянии гендерного равенства на качество образования и социальное развитие. Рассматриваемые примеры включают как успешные практики, так и проблемы, с которыми сталкиваются различные страны в процессе внедрения гендерных инициатив.

Abstract

The article explores the history of international experiences with gender approaches in education. It outlines key stages in the development of gender policies in the educational systems of various countries, identifying trends and methods used in educational institutions to ensure equal opportunities for all students. The article also highlights the impact of gender equality on educational quality and social development. The examples discussed include both successful practices and challenges faced by different countries in implementing gender-related initiatives.

Kalit so'zlar: ta'limda gender yondashuvi, gender tenglik, ta'lim tizimida gender siyosati, xalqaro tajribalar, ta'limda teng imkoniyatlar, gender stereotiplari, ta'lim sifati ta'sir, ta'limdagi gender tengligi, ijtimoiy rivojlanish, xalqaro ta'lim amaliyotlari, qizlarni ta'limga jalb qilish, gender muammolarini hal qilish, ta'lim siyosati.

Key words: gender approach in education, gender equality, gender policy in the education system, international experiences, equal opportunities in education, gender stereotypes, impact on the quality of education, gender equality in education, social development, international educational practices, involving girls in education, solving gender problems, educational policy.

Ключевые слова: гендерный подход в образовании, гендерное равенство, гендерная политика в системе образования, международный опыт, равные возможности в образовании, гендерные стереотипы, влияние на качество образования, гендерное равенство в образовании, социальное развитие, международная образовательная практика, вовлечение девочек в образование, решение гендерных проблем, образовательная политика.

KIRISH

Ta'lim sohasida gender yondashuvi bugungi kunda nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy jihatdan ham o'zgartirishlar kiritmoqda. Gendering ta'limdagi roli va uning rivojlanishiga ta'siri haqida gapirganda, bu nafaqat erkak va ayol farqlariga, balki jamiyatdagi barcha jinsiy identifikatsiya va rollarni qamrab olishga doir masalalarga ham tegishli. Xalqaro tajribalarga asoslanib, genderni ta'limda muvozanatli va adolatli tarzda yondashish orqali, dunyo miqyosida katta ijtimoiy o'zgarishlarga erishishga erishilgan. Bunday yondashuvlar nafaqat jismoniy yoki ijtimoiy jihatdan, balki iqtisodiy, siyosiy va

madaniy sohalarda ham ta'sir ko'rsatdi. Shunday qilib, genderga oid yondashuvning ta'limdagi ahamiyati doimiy ravishda oshib bormoqda, chunki bu masala nafaqat ta'lim tizimini, balki jamiyatning kelajakdagi rivojlanishini shakllantiradi.

Gender konsepsiyasi ijtimoiy-iqtisodiy tahlil kategoriyasi sifatida MDH mintaqasi uchun yangilikdir. Mustaqillik yillarida ko'plab respublikalarda gender tadqiqotlari asosida oliy o'quv yurtlari talabalarining ijtimoiy faolligini oshirish borasida ishlar olib borilmoqda.

Respublikamiz oliy o'quv yurtlarida gender yondashuv asosida talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti bo'yicha tadqiqotlarning olib borilishi bo'lg'usi mutaxassislar ijtimoiy faolligining dunyodagi eng yangi tahliliy yutuqlar asosida shakllanishiga yordam beradi.

Shu jihatdan gender yondashuv bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar har tomonlama rivojlangan, keng dunyoqarashga ega bo'lgan talaba-qizlarni mutaxassislik asosida tayyorlash va ular yordamida mamlakatimiz xotin-qizlari salohiyatidan jamiyatimiz ma'naviyati va moddiy farovonligini yanada oshirish yo'lida to'laroq foydalanishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini shakllantirish pedagogika tarixida Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Elbek (Mashriq Yunusov) kabi allomalarimizning ilmiy yo'nalishlari asosini tashkil etgan.

Zamonaviy sharoitda jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini shakllantirishga doir ilmiy-tadqiqot ishlari falsafiy, ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy yo'nalishlarda amalga oshirilayotganligi ko'zga tashlanadi. Ularning falsafiy-metodologik jihatlarini Simona de Buvuar, R.Xov, J.Lorber, K.Uest va D.Zimmermann, YE.Kuchkina, V.Fesenko, ijtimoiy yo'nalishda V.M.Xvostov, O.Voronina, B.Fridan, YE.Zdravomislova, gumanitar yondashuv asosida N.Vulf, K.Mishar-Marshal, K.Riberi, G.Mur kabi olimlarning ilmiy ishlari, monografiya va o'quv qo'llanmalarida chuqur tahlil etilgan.

Pedagog olimlardan M.Quronov[6], S.Nishonova[5], O.Musurmonova[4], T.Egamberdiyeva[11], N.Egamberdiyeva[3], A.Zunnunov[7] kabilarning ilmiy izlanishlarida jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini shakllantirishga doir ayrim xususiyatlarga e'tibor qaratilgan[6].

Zamonaviy sharoitda jahon amaliyotiga asoslangan mazkur dastlabki izlanishlar BMT taraqqiyot dasturi YUNESKO, "Ochiq jamiyat" Ko'mak jamg'armasi instituti tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Xususan, talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish, ularni jamiyatimizning teng huquqli bunyodkoriga aylantirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

So'nggi yillarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

MDH mintaqasining ayrim davlatlaridagina, xususan, O'zbekiston va Qozog'istonda umuminsoniy huquqlarga, jumladan, xotin-qizlar huquqlariga daxldor yangi mexanizmlar, Ombudsman instituti, bolalar ishlari instituti kabi yangi mexanizmlar yaratildi. Ayni paytda bunday institutlarning vakolatlarini kengaytirish va ularning samaradorligini ta'minlash davrimizning dolzarb masala-laridan biriga aylandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida amalga oshiriladigan keng ko'lamli ishlar loyihasi yaratildi va u samarali amalga oshirilmoqda.

Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil etildi.

O'zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga yetdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'ringa ko'tarildi.

Boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foizga, partiyalarda 44 foizga, oliy ta'limda 40 foizga, tadbirkorlikda 35 foizga yetdi.

TARIX

Xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, ular bilan manzilli ishlash maqsadida «Ayollar daftari» tizimi joriy etilib, Davlat budjetidan har yili 300 mlrd so'm mablag' ajratib borish yo'lga qo'yildi.

Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar, boquvchisi yo'q yolg'iz ayollarning o'qish to'lovlarini qoplab berish tizimi joriy etilib, oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar soni ikki baravarga ortdi.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida 224 mingdan ortiq xotin-qizga jami 6,9 trln so'm miqdorida imtiyozli kredit ajratildi.

Sohada olib borilayotgan islohotlar xalqaro reytinglardagi mamlakatimiz o'rniga ijobiy ta'sir ko'rsatib, Jahon bankining Ayollar, biznes va qonun indeksida O'zbekiston 2020-yilda xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik bo'yicha ahamiyatga molik islohotlarni amalga oshirgan 27 ta davlat qatoriga kiritildi va 5 pog'onaga yuqorilab, 190 ta davlat orasida 134-o'rinni egalladi.

O'zbekiston BMT Nizomining maqsad va prinsiplariga hamda xalqaro huquqning boshqa umume'tirof etilgan normalariga sodiq ekanliklarini doimo ko'rsatib kelgan.

BMT Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentabrida Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan sammitida 70-son rezolyutsiyasi qabul qilinib, mamlakatimiz uchun dolzarb hisoblangan 16 ta milliy maqsadga erishish bo'yicha 125 ta maqsadli vazifa hamda 206 ta indikator ishlab chiqilgan.

Xususan, barqaror rivojlanish sohasidagi 5-maqsad – Gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquq hamda imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan islohotlar bilan hamohangdir[12].

Ta'lim tizimiga gender yondashuv borasida dunyo davlatlarida ijobiy tajribalar to'plandi. Jumladan, Koreya Respublikasi (Janubiy Koreya)da oila va gender tengligi masalalari bo'yicha vazirligi tomonidan mamlakatda gender tengligini mustahkamlash maqsadida besh yillikga mo'ljallangan "Koreyaning milliy gender strategiyasi" ishlab chiqilgan. U quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan:

- gender tengligi madaniyatini yaratish;
- mehnat faoliyati va shaxsiy hayot o'rtasida muvozanatni saqlashga ko'maklashish;
- ishga joylashishda gender muvozanatsizligi muammolarini hal qilish;
- davlat va xalqaro sohalarda ayollar ishtirokini ta'minlashdagi muammolarni hal qilish;
- zo'ravonlikka barham berish va inson huquqlarini himoya qilish;
- sog'lik va farovonlik holatlarini yaxshilash;
- gender tengligini ta'minlash uchun barqaror qonunchilik asoslarini yaratish.

Ulardan quyidagi ustuvor vazifalarni ajratib olish mumkin:

- mehnat bozorida ayollar ishtiroki darajasini oshirish;
- ayol va erkaklarning mehnat faoliyati va shaxsiy hayotida mutanosiblik bo'yicha meyorlarni ishlab chiqish hamda ularga rioya etilishini rag'batlantirish;
- ayollarni rahbarlik sohasida qamrab olinishini kuchaytirishdan iboratdir.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, Janubiy Koreyaning nufuzli nashrlaridan biri – "The Korea Post" veb-sahifasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari, Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazi direktori Akmal Saidovning "Yangi O'zbekistonning gender siyosati" sarlavhali maqolasi chop etildi. Unda O'zbekistonda gender tenglik masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangani, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatda ayollarning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini kafolatlash ularning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirokini kengaytirish borasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar haqida so'z yuritiladi.

Maqolada yozilishicha, yaqinda 2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish doirasida O'zbekistonning ayollar huquqlari va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha tajribasi to'g'risidagi ma'lumotlar BMT Bosh assambleyasining 75-sessiyasining rasmiy hujjati sifatida tashkilotga a'zo davlatlarga taqdim etildi. Shu munosabat bilan BMT va Parlamentlararo ittifoq ekspertlari ushbu sohada O'zbekistonda kuzatilayotgan tendensiyalar, xususan, davlat va jamiyat ishlarida, parlament, hukumat va sud tizimida ayollar sonining ortayotganini yuqori baholadi[13].

Birlashgan Meksika Shtatlari o'z qonunlari, meyoriy hujjatlari, siyosati va rivojlanish maqsadlari bilan ayollar va erkaklar orasida haqiqiy tenglikka erishishga o'ta mas'uliyat bilan yondashganligini namoyon etdi. Ushbu davlat hukumatning barcha tadbirlariga gender jihatlarni kiritish bilan

rejalashtirishga oid va siyosiy hujjatlarni, huquqiy hujjatlarni ketma-ket kelishib olish orqali katta muvaffaqiyatga erishdi. Siyosiy kelishuvlar sirasiga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

2006-yilda Erkak va ayollar huquqlarining tengligi to'g'risidagi umumiy qonuning qabul qilinishi;

Rejalashtirish to'g'risidagi Qonun hamda Soliq-budjet sohasidagi hisobdorlik to'g'risidagi federal qonuniga gender yondoshuvini keng joriy qilish bo'yicha talablarni kiritilishi;

2013-2018 yillarga mo'ljallangan Milliy dastur doirasida gender jihatlarni rivojlanishning kompleks maqsadlari sifatida belgilash;

2013-2018 yillarga mo'ljallangan kompleks maqsadlarni amalga oshirish uchun imkoniyatlar tengligini ta'minlash va kamsitilishga barham berish bo'yicha Milliy dasturni ishlab chiqishdan iborat.

Gender tengligi Milliy dastur tamoyillari orasida asosiy tamoyil sifatida to'liq integratsiya qilinmagan bo'lsada, hujjatda gender tengligiga oid alohida bir bo'lim kiritilgan. Bu bilan mazkur muammo dolzarbligiga siyosiy jihatdan urg'u berilayotganligiga e'tibor qaratishimiz mumkin. Gender tengligini ta'minlash masalalarini davlat siyosatiga kiritish orqali fuqarolarning tengligini ta'minlashga qaratilgan g'oyalar mavjudligi yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Daniya va Ispaniya Qirolliklarida gender tengligiga yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, Daniyada uzoq muddatli oliy ta'lim olayotgan yigit va qizlarning ulushi yuqoridir. Daniyaning gender tengligi masalalari bo'yicha vaziri yoshlar ta'lim sohasi va ish tanlashda qaysi jinsga mansubligiga qarab emas, o'z qobiliyatlarini inobatga olgan holda kasb tanlashga e'tibor qaratish kerak degan g'oyani ilgari suradi. Kasbga yo'naltirish bo'yicha maslahatchilarning o'quv tayyorgarlik rejasiga ta'lim sohasini tanlashda va kasbiy o'sish masalasida madaniy boyliklarning ta'siri va ahamiyati, shu jumladan gender omillari kiritilgan.

Hukumat tomonidan tabiiy va texnik fanlarda qizlar sonini oshirishga bag'ishlangan 10ta turli xil loyihalar moliyalashtirildi va buning natijasida ushbu sohadagi kompaniyalar bilan tuzilgan kelishuvlar orqali qizlar soni keskin ko'tarilgani qayd etildi va ularning 78 foizi loyiha natijasida kasb tanlashga nisbatan nuqtai nazar o'zgarganini bildirgan.

Daniyada bitiruvchilarni oliy ta'limga tayyorlash to'rtta turli dasturlardan iborat. Bitiruvchilar orasida erkak va ayollarning mutanosibligi 44:56 tashkil qilgan. Xotin-qizlar tomonidan qaysi ta'lim sohasini tanlashlari asosan o'qituvchining ta'siriga bog'liq ekanligi aniqlangan. Shu sababli tabiiy fanlar ta'limida bir maromda gender taqsimlanishiga erishish uchun tabiiy fanlarning asosiy kurslarini mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Ispaniyaning milliy gender strategiyasi – bu hukumat tomonidan gender kamsitilishiga qarshi kurash masalalarida ustuvor chora-tadbirlar va vazifalarni belgilovchi, ayol va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlab beruvchi uch yilga mo'ljallangan mexanizmdir.

Strategiya quyidagi ustuvor vazifalarni hal etishga qaratilgan:

- mehnat bozori va iqtisodiyotda saqlanib qolayotgan tengsizlikni qisqartirish (jumladan, ish haqi to'lanishidagi tengsizlik);

- mehnat, oilaviy va shaxsiy hayotda muvozanatni topishda qo'llab-quvvatlashni amalga oshirish;

- xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning barcha turlariga barham berish;

- ayollarni siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotga keng jalb qilinishini yaxshilash;

- ta'lim berish orqali ayol va erkaklarning teng imkoniyatlarini rivojlantirish;

- davlat dasturlari va chora-tadbirlarida teng munosabat va imkoniyatlar tamoyili kiritilishini ta'minlashdan iboratdir.

MDH mamlakatlaridan, jumladan, Belorussiya o'z aholisining, ham erkaklar, ham xotin-qizlarning inson salohiyati rivojiga ko'p sarmoya kirituvchi davlatlardan hisoblanadi. Mamlakatda boshlang'ich va o'rta ta'lim majburiy. Shu sababdan qizlarning deyarli 100 foizi maktabga boradi. O'g'il bolalar bilan ham huddi shunday holat. Biroq, oliy ta'lim darajasida katta gender uzilishni ko'rish mumkin: universitetlarda ta'lim olayotgan qizlarning soni erkaklarnikidan ko'p. Erkaklar tomonidan ko'pincha kasbiy ta'lim tanlanayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Talabalar ichida qiz bolalarning soni ko'pligining sabablaridan biri shundaki, mehnat bozorida to'siqlarga aynan xotin-qizlar uchrashi va ular ta'lim olish uchun ko'proq kuch sarflashiga to'g'ri keladi. Ikkinchidan, erkaklar oliy ma'lumotni yuqori darajada obro'li deb hisoblamasligidadir.

Universitetga kirishda qizlar, qoidaga ko'ra, ijtimoiy himoya, umumiy ovqatlanish, ijtimoiy fanlar va pedagogika sohalarini tanlaydilar va ularning bu yerdagi ulushi 80 foizga yetadi.

TARIX

Mehnatga haq to'lashdagi gender farqlanish Belorussiyada ikkita asosiy omil bilan belgilanadi. Birinchidan, ayollar band bo'lgan sohalarda ish haqi ko'rsatkichi pastligi – asosan budget sohasi, masalan, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot, savdo va umumiy ovqatlanish, madaniyat va san'at. Bu sohalarda ayollarni rahbarlik lavozimlariga tayinlash imkoni yuqori bo'lsada, lekin ularning sohadagi o'rtacha ish haqi mamlakatdagi o'rtacha ish haqidan past ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Ikkinchidan, boshqa sohalarda ham yuqori maoshli rahbarlik lavozimlarida ayollar yetarlicha o'rin egallamaganligi qayd etiladi.

Ijtimoiy meyorlarni o'zgartirish uchun o'rta maktab va oliy ta'lim muassasalarida gender masalalari bo'yicha darslarni olib borish, bo'lajak jurnalistlar uchun gender tengligi muammolari bo'yicha maxsus kurslarni tashkil etish va mediada ijobiy ayollar obrazini talqin etish va shu kabi choralarni ko'rish orqali jamiyatda mavjud bo'lgan gender stereotiplardan xalos bo'lishga yordam beradi. Gender siyosatining muvaffaqiyati muammolarni ko'rsatib beruvchi ma'lumotlar mavjudligiga hamda gender siyosati bo'yicha amalga oshirilayotgan choralarni nazorat qilishga bog'liqdir.

Umuman olganda, Belorussiyaning oliy ta'lim to'g'risidagi qonunchiligi ayol va erkaklarga nisbatan kamsituvchi normalardan xolis hisoblanadi, ularga ta'lim olish huquqini amalga oshirishda teng imkoniyatlar belgilab berilgan. Ayol va erkaklarning oliy ta'lim muassasalariga, shu jumladan magistratura, aspirantura va doktoranturaga kirishda yuridik cheklovlar mavjud emas.

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha talablar, ta'lim oluvchilarning o'qishini ko'chirish, tiklash va safdan chiqarish, shuningdek, bitiruvchilarni taqsimlash, aspirantura va doktoranturada o'qitishga oid meyorlar ayol va erkaklarni jinsiga ko'ra kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Qo'shni mamlakatlardan Qozog'iston Respublikasining Gender tengligi siyosati konsepsiyasida 2030-yilga qadar jamiyatning barcha jabhalarida ayol va erkaklar uchun teng huquq, afzallik, majburiyat va imkoniyatlar hamda jinsi bo'yicha barcha kamsitilishlarga barham berish maqsad etib belgilangan. Ushbu maqsadlarga quyidagi yo'llar bilan erishish kutilmoqda:

davlat va budgetni rejalashtirish tizimiga gender baholashni kiritish va davlat tomonidan tartibga solishi orqali gender tengligi institutini mustahkamlash;

tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha resurslarni qo'lga kiritishda ayol va erkaklarga tenglikni ta'minlash;

ayol va erkaklarni ishga joylashtirishda huquqlarini tenglashtirish uchun sharoitlar yaratish;

xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish;

gender masalasida ma'rifiy ishlarni rivojlantirish;

tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashda ayollar ishtirokini kengaytirish ko'zda tutilgan.

Konsepsiyada shuningdek, maxsus sohadagi maqsadlar belgilangan, masalan, ijro, qonunchilik va sud organlarida qaror qabul qilish darajasida, davlat va korporativ sektorlarda xotin-qizlar ulushini 30 foizga yetkazish, shuningdek, erkaklar va ayollarning o'rtacha ish haqidagi tafovutni qisqartirishdan iboratdir.

Strategiyada gender komponentini ta'lim sohasining barcha darajalarida joriy etish ko'zda tutilgan bo'lsa-da, ta'lim standartlarida gender muammolarini hisobga olish va genderga yo'naltirilgan ta'limga tizimli yondoshish amalga oshirilmagan. Darsliklarni gender ekspertizasidan o'tkazish joriy etilmagan. Shunday bo'lsada, fan va ta'lim sohasidagi taraqqiyotni monitoring qilish vositalari sifatida Strategiyaga kiritilgan ayrim indikatorlar muayyan muvaffaqiyatlarga erishilganligidan dalolat beradi, masalan, 2011-2015-yillarda ilmiy xodimlar orasidagi ayollar soni 70 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Guvohi bo'layotganingizdek, ayollarga davlat va jamiyat taqdiriga daxldor qarorlarni hayotga tatbiq etish, xususan, qonunlarni ishlab chiqish, qabul qilish, islohotlarni amalga oshirish jarayonlarida bevosita qatnashishlari uchun keng yo'l ochildi. Bu ayol-ku, ertaga qiynalib qolishi mumkin, degan tushuncha tarixda qoldi. Endi ular mana shunday mas'uliyatli vazifani sharaf bilan bajarishlari kerak, deb hisoblayman[9].

Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasida opa-singillarimiz, yoshlarimiz ham faol bo'ladi. Gender masalalari yuzasidan O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida ancha ilg'or siyosat yuritmoqda. Shu bois BMT Markaziy Osiyodagi gender platformasini O'zbekistonda tuzish bo'yicha amaliy takliflarni ko'rib chiqdi. Hozirgi kunda mazkur masala yuzasidan BMTning martabali vakillaridan biri Natalya German bilan ham shu masalada muloqotlar olib borildi[1].

Natijada ushbu nufuzli xalqaro tashkilot va qo'shni davlatlar bilan hamkorlikda gender tenglikni faol ilgari surayotgan mamlakat sifatida Markaziy Osiyo platformasini yaratish ishlari yangi

bosqichga ko'tariladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad Markaziy Osiyo mintaqasi bo'ylab gender masalasida olib borayotgan sa'y-harakatlarimizni taqdim etish hamda qardoshlar bilan o'zaro bilim, fikr va tajriba almashishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmonida ham xotin-qizlarimizning haq-huquqlarini himoya qilish, ularni oliy ta'limga yanada ko'proq qamrab olishga alohida e'tibor qaratilgani ham bejiz emas[2].

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, xotin-qizlarga mana shunday g'amxo'rlik qilinsa, uning mevasi ham shirin bo'ladi. Xotin-qizlarimiz, ertaga ishlagan yoki ishlamagan taqdirda ham, oliy ma'lumotli bo'lsa, oqilalik libosini kiyadi, qo'pol gapirmaydi, bir qo'lida qaynonasi, bir qo'lida turmush o'rtog'ini ko'tarib yuradi, chiroyli oilaning dilbar va donobekasiga, o'zaro munosabatlarda mohir diplomatga aylanadi. Mustahkam oila qurishda aynan shu jihatlar nihoyatda muhim ekanligini yigitlar ham yaxshi tushunadi, ular ham, o'z navbatida, o'ziga yaqin bo'lgan turmush o'rtog'i va onasini hurmat qiladi, e'zozlaydi. Albatta bunday natijaga erishish gender tengligini ta'minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикасининг "Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида"ги Қонуни. 2019 йил 2 сентябрь.
2. Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини "Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили"да амалга оширишга оид Давлат дастури тўғрисида"ги Фармони. 2020 йил декабрь.
3. Egamberdiyeva N. O'qituvchilarni tayyorlashda gender yondoshuv masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent 2018 y.
4. Musurmanova O. Ayollari ardoqlangan yurt. Toshkent: Zarvara nashriyoti. 2021. – 44 b.
5. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. T.2003-y.185-b.
6. Qur'onov M. Oila va barkamol avlod tarbiyasi. – T.: Ma'naviyat, 2012. – 134 b
7. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. "Sharq" nashriyoti.-T., 2004.-12 - b.
8. Қурбонова Г., Абдуллаева З. Гендер ёндашув асосида талаба-қизларнинг ижтимоий фаоллигини ривожлантириш назарияси//Замонавий таълим. 2014, 6. – Б. 37-40.
9. Нишонава Н. Ўзбекистон давлат бошқаруви тизимида хотин-қизлар фаолиятининг ижтимоий-фалсафий таҳлили. Фалсафа фанлари доктори (DSc) диссертация – Тошкент, 2020. – Б. 120-122.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2017 — 2021 йилларда
11. Эгамбердиева Т., Жамолдинова О., Солихўжаева Д. Олий таълим тизимига гендер ёндашув тамойилларини жорий этиш усуллари. Услубий қўлланма – Фарғона, 2023. – 119 б.
12. <https://lex.uz/docs/> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг қарори, 28.05.2021 йилдаги СҚ-297-IV-сон
13. <https://yuz.uz/news/> Янги Ўзбекистоннинг гендер сиёсати Жанубий Корея матбуоти нигоҳида